FARG‘ONA VILOYATI YOZYOVON TUMANI HOKIMINING QARORI

150600, Yozyovon tumani Mustaqillik ko`chasi 1-uy, tel: (73) 412-15-15, www.yozyovon.uz

2022 - yil 30 - sentabr 283-11-165-Q/22 Yozyovon tuman hokimligi

Farg’ona viloyati Yozyovon tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to’g’risida

O’zbekiston Respublikasining “Dafn etish va dafn ishi to’g’risida”gi Qonuni, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Dafn etish va dafn ishi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 2011 yil 4 apreldagi 101-son qarori hamda O’zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan Farg’ona viloyati Yozyovon tumani xududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Viloyatdagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman va shaharlar hokimlari:

fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

sanitariya qoidalari va me’yorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to’g’risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirsin.

3. Tuman va shaharlar obodonlashtirish boshqarmalari (fuqarolik xizmati ko’rsatish boshqarmalari) hamda qabristonlarning ma’muriyati:

xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo’yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko’rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o’z vaqtida va sifatli bajarilishini;

qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo’lgan inshootlarni o’rnatish, ob’ektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qaror Markaziy Farg’ona gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o’rinbosari D.Bekmirzayev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **D.T.Djalilov**

Yozyovon tuman hokimining
2022 yil 30 sentabrdagi
283-11-165-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Farg’ona viloyati Yozyovon tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha tariflar miqdori

so’m

T\r	Xizmat turi	O’lchov birligi	Tuman (shahar)lar	Tuman (shahar)lar*
1.	Go’r qazish(diniy mansubligidan qatьiy nazar katta o’lchamda 12 yoshdan yuqori)	1 o’ringa		50%
2.	Go’r qazish(diniy mansubligidan qatьiy nazar kichik o’lchamda 3 yoshdan-12 yoshgacha)	1 o’ringa		40%
3.	Go’r qazish(diniy mansubligidan qatьiy nazar 3 yoshgacha)	1 o’ringa		bepul
4.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o’ringa	bepul	bepul
5.	Maxsus nomerlangan ustunchalar tayyorlash	1 o’ringa		5%
6.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o’rin/kunga	bepul	bepul

*Viloyatdagi tuman (shahar)larda narxlar tafovut qilishi mumkin, shu sababli ustunlar soni ikkita.